

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

SODIQOV SANJARBEK SUBIXONIDDIN O'G'LI

**O'ZBEKISTON YOSHLARINING FAOL IJTIMOYIY POZITSIYASINI
SHAKLLANTIRISHDA MA'NAVIY SALOHİYATNING O'RNI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

UO‘K:101.1:316-053.81:17(575.1)

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
philosophical sciences**

Sodiqov Sanjarbek Subixoniddin o‘g‘li

О‘zbekiston yoshlarining faol ijtimoiy pozitsiyasini shakllantirishda
ma’naviy salohiyatning o‘rni3

Содиқов Санжарбек Субихониддин угли

Роль духовного потенциала в формировании активной социальной
позиции молодежи Узбекистана23

Sodikov Sanjarbek Subikhoniddin ugli

Role of spiritual potential in active social position forming of the youth of
Uzbekistan.....45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of works published.....50

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

SODIQOV SANJARBEK SUBIXONIDDIN O‘G‘LI

**O‘ZBEKISTON YOSHLARINING FAOL IJTIMOYIY POZITSIYASINI
SHAKLLANTIRISHDA MA’NAVIY SALOHİYATNING O‘RNI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/Fal332 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yuldasheva Farida Xujamkulovna
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Salomova Hakima Yusupovna
falsafa fanlari doktori, professor

Do'lanov Abbos Egamberdiyevich
falsafa fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "15" noyabr soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (751 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "28" oktyabr kuni tarqatildi.

(2025-yil "28" oktyabr dagi 42 raqamli reyestr bayonnomasi.)



Namozov B.B.

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

Sharipov A.Z.

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, professor

Safarova N.O.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda zamonaviy sivilizatsiya sharoitida yoshlarning individualizm, iste'molchilik va texnokratik qadriyatlar ta'sirida o'zgarayotgan faol ijtimoiy pozitsiyasini, ularning ma'naviy salohiyatini saqlab qolish masalasi insoniyat taraqqiyotining strategik omiliga aylanmoqda. Jamiyat xavfsizligi va barqaror rivojlanish mezonini sifatida baholanayotgan yoshlarning ma'naviy salohiyatini mustahkamlash, ularning ijtimoiy faolligi, fuqarolik javobgarligi va ijodiy ishtirokini ta'minlash muammosi muhim ijtimoiy-falsafiy muammo hisoblanadi. Shu bois yoshlar ijtimoiy ongini ratsionallik, realizm, kreativlik, pragmatiklik, milliy qadriyatlarga real va tanqidiy yondashuv asosida shakllantirish, yangilanayotgan jamiyatning yoshlarida faol ijtimoiy pozitsiyani shakllantirishning muhim determinantlarini asoslab berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fani, ilmiy va strategik tadqiqot markazlarida ma'naviy salohiyat, uning tarkibiy qismlari, yoshlar salohiyati, ularning faol ijtimoiy pozitsiyasini shakllantirish va intellektual-ma'naviy salohiyati hamda resurslarini yuksaltirish, ularning ehtiyojlarini qondirish muammolariga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda. Yoshlar va ularning ijtimoiy faolligi masalasi fuqarolik burchi sifatida, axloqiy ong erkinligining ifodasi hamda axloqiy javobgarlik bilan uyg'un harakat sifatida, ishonch kapitali va madaniy integratsiya tizimida muhim o'rin egallab kelmoqda. Shu jihatdan, yoshlar faolligi va ma'naviy salohiyatni ijtimoiy-falsafiy kontekstda, milliy qadriyatlar asosida o'rganish, yoshlarning intellektual, madaniy, ma'naviy salohiyatining dialektik, tarixiy, innovatsion xususiyatlarini tadqiq yetish zaruriyati ortib bormoqda.

Yangi O'zbekistonni barpo etishda ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalaridagi yangilanishlar jarayonida yoshlarning faol ijtimoiy pozitsiyasini shakllantirish, intellektual-ma'naviy salohiyatini yuksaltirish, har tomondan rivojlanishiga shart-sharoitlar yaratib berish hamda yoshlar qalbida amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirishga alohida ahamiyat berilmoqda. "Mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, aholi, ayniqsa yoshlarning intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuug'usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalash – davr talabidir. Shu maqsadda ilm-fan, madaniyat va san'at, adabiyot va badiiy ijod sohalarining ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotdagi ta'sirchanligini yanada oshirishga qaratilgan dasturlar qabul qilamiz"¹. Shu bois, yoshlarning faol ijtimoiy pozitsiyasiga ta'sir etuvchi ma'naviy omillarni tahlil qilish, ularni asoslash va amaliyotga tatbiq etishda tashabbuskorlik, kreativlik, innovatsion qadriyatlar, zamonaviy ijtimoiy xulq-atvor qoidalarini o'zlashtirishga yo'naltiruvchi muhim praksiologik omillarni ilmiy asoslab berish yoshlarning ma'naviy yetukligi, milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik, adolatparvarlik va jamiyatda ijtimoiy mas'uliyat tuyg'usini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Тошкент: "O'zbekiston", 2021. - Б.275.

O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentyabrdagi O‘RQ-406-son “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida” Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2018-yil 21-sentyabrdagi PF-5544-son “2019-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son “Ilm fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” farmonlari, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizmini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Yoshlar va ularning ijtimoiy – madaniy, ma’naviy – axloqiy hayotiga oid muammolarini tahlil etishda J.Lokk, F.Nisshe, A.Bergson, R.Dekart, G.Bekker, P.Burde, U.Djeyms, I.Kant, K.Yaspers, G.Markuze, A.Maslou, B.Spinoza, S.Fisher, E.Fromm kabi mutafakkirlar, olimlarning asarlariga murojaat qilish muhim falsafiy ahamiyatga ega².

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlarida yoshlarning ma’naviy salohiyatini yuksaltirish asosida ularning faolligini oshirish muammolari atroflicha o‘rganilmoqda. Bu borada V.Babinsev, A.Dobrinin, A.Afanasyev, O.Ivanov, T.Kalinina, Ye.Kitayseva, S.Kurganskiy, M.Kurkina yaratgan asarlari haqida aytish mumkin³.

² Дж.Локк. Опыт о человеческом разумении. – Москва: 2005. – 736 с., Анри Бергсон. Творческая эволюция. – Москва: Терра-книжный клуб, 2001. – 384 с., Ф.Ницше. Человеческое слишком человеческое – Москва: «Издательство АСТ», 2020. – С.388., Э.Фром. Человек для себя – Москва: Пионер, 2000. 465 с., Кант И. Критика чистого разума. – Соч: В –ти Т. –Москва: Мысл, 1964, Т.3 –69-799., Декарт Р. Сочинения. В 2 т-х. – Москва: Мысл, 1989., Маслоу А. Мотивация и личность – СПб: – Питер, 2008., Беккер Г.С. Экономический анализ и человеческое поведение // THESIS. – 1993. Т.1, вып.1.С.38., Бурдые П. Начала – Москва, 1994., Джеймс У. Введение в философию. – Берлин, 1923., Marcuse H. One-Dimensional Man. – Boston: Beacon, 1964., Karl Yaspers. Waytowisdom. – New Haven: “Yale university press”, 1960. –73., Спиноза Б. Этика. –Москва: “АСТ”, 2001. –С.72.

³ Калинина.Т.В. Функционально-типологический анализ человеческого потенциала.Дисс.на соиск степ канд фил наук. – Нижний Новгород, 2007. – С. 188., Афанасев В.Г. Человек в управлении обществом. – М., 1988. – С.279., Бабинцев В.П., Куркина М.П. Человеческий потенциал как научная категория.// Nomothetika: Философия. Социология. Право, 2012, №8. – С.52-58., Калашникова Н.А. Роль критического мышления в формировании инновационной социальной среды. ISSN 1998-9946. Вестн. Волгогр. гос. ун-та. Сер. 7, Филос.

Markaziy Osiyo mutafakkirlari merosida inson, yoshlar va ularning tarbiyasi, salohiyatining yuksalishi masalalariga e'tibor qaratilgan. Zardushtiylikning mashhur g'oyasi "Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal" falsafiy antropologiya, aksiologiya va prakseologiya taraqqaoti davomida o'z ahamiyatini yo'qotmaydigan asosi sifatida qaralishi mumkin. Ibn Sino, Beruniy, Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Forobiy, Jaloliddin Rumiy, G'azzoliy, Ibn Xaldun, Alisher Navoiy, Bobur kabi mutafakkirlar inson, uning ongi, bilimi, salohiyatiga tegishli fikrlarni bayon etganlar. Yurtimiz jadidlari Avloniy ilmning va bilimli bo'lishning ahamiyati va ilmi kishining boshqalardan ajralib turishini, Behbudiy esa jamiyat taraqqaoti, tamaddun kelajagi bilimli, demak, salohiyatli yoshlarning qo'lida ekanligining ahamiyatini yoritganlar⁴.

O'zbekistonda inson salohiyati, intellektual-ma'naviy salohiyatini yuzaga chiqarish, shakllantirish hamda realizatsiya qilish zahirida yoshlarning faol ijtimoiy pozitsiyani shakllantirish masalalarini o'rganish asnosida keng ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Yoshlarning faoliyati, ehtiyojlari va manfaatlarining o'zaro dialektik aloqadorligi, ularning faolligini oshirish muammolari haqida A.Begmatov, Q.Nazarov, A.Choriyev, A.Muxtorov, Z.Qodirova, M.Qaxxarova, S.Choriyev, G.Rahimova, Sh.Madayeva, O.Bozorov, A.Egamberdiyev, S.Jabborova, N.Xolmirzayev, J.Jabborov kabi olimlar fundamental asarlar yaratishgan va ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Keyingi yillarda R.I.Norliyev milliy ma'naviyat rivoji bilan jamiyat ma'naviy taraqqaoti o'rtasidagi aloqadorlikning namoyon bo'lish xususiyatlarini. E.Ibragimov, R.Rustamov jamiyat ma'naviy salohiyatiga ta'sir ko'rsatayotgan omillarni. F.Yuldashova, J.Yaxshilikov va N.Muxammadiyev, N.Jo'rayev, B.To'ychiyev ilmiy ishlarida O'zbekistonda ma'naviyat salohiyatni yuksaltirish muammolari tadqiq etilmoqda⁵.

2015 № 4 (30) 127-133., Чеснокова В.Ф., Уильям Л. Питирим Сорокин: социальная стратификация и социальная мобильность. Человек. Сообщество. Управление. 2007. № 1. – С. 115-121., Иванов О. И. Человеческий потенциал (формирование, развитие, использование) монография Санкт-Петербург: Скифия – принт, 2013. – С. 336., Курганский С.А., Структура человеческого капитала и его оценка и его оценка на макроуровне, Известия ИГЭА. 2011. № 6 (80). С.15-22.

⁴ "Авесто". Тарихий-адабий ёдгорлик. Аскар Махкам таржимаси. – Toshkent: "Шарк", 2001. – 8.б.

Абу Али Ибн Сино. Тиб қонунлари. – Тошкент: Турон замин зиё, 2015. – 740 б., Ғазолий А.Х.Кимёи саодат.Икки дунё саодатига элтувчи билим – Тошкент: Имом Бухорий халқаро маркази, 2019. – 296 б., Jaloliddin Rumiy. Ichingdagi ichingdadir. (Ulug'bek Hamdam tarjimas) – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. – 210 б., Кайковус.Қобуснома. –Тошкент:Ўқитувчи, 2006. – 258 б., Abduhraxmon Abuzayd ibn Xaldun. Al-Muqaddima. – Qohira: al-Matba'at al-adabiya, 1900., Alisher Navoiy. Hayratul-abror. Ilmiy-tanqidiy tekst (nashr. P.Shamsiev). –Toshkent: 2004. – Б.340.; Абу Наср Фаробий. Рисолалар. – Тошкент: Фан, 1975. – Б. 132.; Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шахри. – Тошкент.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2004 . – Б.66.Махмудхўжа Бехбудий. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 1999.– 179-б.

⁵ Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. I. А-Н Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, "Маънавият" нашриёти, 2019., Чориев А. Инсон фалсафаси. Мустақил шахс. Иккинчи китоб. – Т.: Чинор, 2002., Мухторов А. Глобаллашув шароитида маънавий таҳдидларни бартараф этиш омиллари. – Т.: Маънавият, 2015., З.Қодирова. Толерантность: диалог мировоззрений и идеологический иммунитет. – Тошкент, 2013., М.Қаххорова. Маънавий идеал. –Тошкент: "Маънавият" 2008., С.Чориев. Ренессанс даври фалсафаси. – Тошкент: "Тафаккур қаноти" 2015; Мадаева Ш. Ўзбек менталитетиде демократик тафаккурнинг шаклланиш хусусиятлари: Фал. фан. докт.... дисс. – Тошкент, 2009. – Б. 248., Раҳимова Г. Ёшларда миллий тафаккурни шакллантиришнинг ижтимоий-фалсафий асослари: Фал. фан. номз. дисс. – Toshkent, 2011., Бозоров.О. Талаба ёшлар маънавий-ахлоқий онгини шакллантиришнинг ижтимоий-фалсафий омиллари: Фал. фан. бўйича фал.докт. (PhD) дисс.– Т., 2018., Эгамбердиев А. Ўзбекистонда модернизация шароитида ёшларда инновацион онг шаклланишининг ижтимоий-фалсафий муаммолари. Фал. фан. бўй. фалс. докт. (PhD) дисс.автореф – Андижон, 2019., N.Xolmirzayev. Yoshlarning ijtimoiy faolligini yuksaltirishda mehnat

Mazkur dissertatsiyani yozish jarayonida yuqorida nomlari zikr etilgan, shuningdek, boshqa bir qator o'zbek va xorijiy olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlari chuqur o'rganildi va tahlil qilindi. O'zbekistondagi ma'naviy salohiyatning xususiyatlari, yoshlarning ijtimoiy faolligini ijtimoiy-falsafiy kontekstda — ma'naviy salohiyat kategoriyasi orqali tahlil qilish va uni ijtimoiy taraqqiyot manbaiga aylantirish imkoniyatlarini ifodalash masalalari kun tartibida qolmoqda. Mazkur dissertatsiyada yangilanayotgan O'zbekistonda ma'naviy salohiyatning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini ochib berish hamda taraqqiyot manbai sifatidagi imkoniyatlarini aniqlashga alohida e'tibor qaratilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Andijon davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbekiston yoshlarining ma'naviy salohiyatini yuksaltirish kontekstida ularda faol hayotiy pozitsiyani shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy tahlili" tadqiqot uo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda yoshlarning faol ijtimoiy pozitsiyasini shakllantirishda ma'naviy salohiyatning o'rnini asoslab berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

“faol ijtimoiy pozitsiya” tushunchasining falsafiy mohiyatini tahlil qilish, uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va funksional ahamiyatini aniqlash;

yoshlarning faol pozitsiyasini shakllantirishda tarixiy-falsafiy manbalarni tadqiq etish;

inson salohiyatining ijtimoiy-falsafiy mazmunini ochib berish, uni jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining muhim omili sifatida falsafiy asoslash;

ma'naviy salohiyat tushunchasining mohiyati, tuzilmasi va shakllanish omillarini hamda yoshlar tafakkuri va faolligiga ta'sirini tahlil qilish.

Yangi O'zbekiston sharoitida yoshlar faol ijtimoiy pozitsiyasining shakllanishiga ta'sir etuvchi ma'naviy, axloqiy va mafkuraviy omillarni tadqiq etish;

yoshlar salohiyatini yuksaltirishning zamonaviy imkoniyatlari hamda istiqbolli yo'nalishlarini ochib berish;

O'zbekiston yoshlarining ma'naviy salohiyatini oshirish va faol pozitsiyasini mustahkamlashga oid tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida yoshlarining ijtimoiy faolligi va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish jarayoni, jamiyatning ma'naviy muhiti, ta'lim va madaniyat bilan uzviy bog'liq tizim tanlab olingan.

Tadqiqot predmetini ma'naviy salohiyatning falsafiy jihatlarini, uning jamiyat ma'naviy rivojiga ta'siri, yoshlarning faol pozitsiyasi va ma'naviy salohiyatining

an'alarining o'rni. Fal. fan. bo'y. fals. dokt. (PhD) diss. avtoref – BuxDU, 2021., S.Jabborova. Ma'naviy salohiyat – ijtimoiy taraqqiyot manbai. Fal. fan. bo'y. fals. dokt. (PhD) diss. avtoref – BuxDU, 2023., J.Jabborov. Ma'naviy ehtiyojlar yuksalishi jamiyat rivojlanishining muhim omili sifatida. Fal. fan. bo'y. fals. dokt. (PhD) diss. avtoref – SamDU, 2023., Юлдашова Ф. Ўзбекистонда глобаллашув шароитида маънавий янгиланишнинг ўзига хос хусусиятлари: Фалс. д. (PhD) дисс. автореф. – Т.:ЎЗМУ, 2019.; Жўраев Н. Мафкурaviy иммунитет. –Т.: Маънавият, 2000. –116 б.; Яхшиликков Ж., Мухаммадиев Н. Миллий ғоя: Ўзбекистонни ривожлантириш стратегияси. –Тошкент: Чўлпон, 2018. - 722 б.; Б.Тўйчиев. Политическая культура и демократизация общества. Тошкент, - 2010. – 282 с.;

o‘zaro munosabati hamda ijtimoiy pozitsiyani shakllantiruvchi omillarni aniqlash tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada analiz va sintez, kompleks yondashuv, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, retrospektiv tahlil, dialektik, sinergetik, faktorial va sotsiometrik tahlil kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

faol ijtimoiy pozitsiyaga ega bo‘lgan yoshlarning ijtimoiy ongi zamonaviy qadriyatlar, innovatsion yondashuvlarni ifoda etuvchi intellektual salohiyat asosida turli madaniyatlar sintezini ifoda etuvchi tafakkurining ratsionallik, realizm, kreativlik, pragmatik yondashuv, milliy qadriyatlarga real va tanqidiy yondashuv, ularni qayta baholash asosida madaniyatlar sintezi (milliy o‘zlik va global tafakkur bilan uyg‘unligi, o‘zini anglash va ijtimoiy faollikni kuchaytirish)ni aks ettirishi asoslangan;

yangilanayotgan jamiyat yoshlarida faol ijtimoiy pozitsiyani shakllantirishning muhim determinanti sifatida yoshlarning intellektual (ratsionallik, kreativlik), madaniy (milliy meros va global qadriyatlar o‘rtasida muvozanat), ma’naviy (ijtimoiy mas’uliyat, vijdon va axloqiy barqarorlikni ta’minlash) salohiyatining dialektik (harakat va o‘zgarish, an’anaviy qadriyatlar bilan zamonaviy tafakkur o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir va inkor), tarixiy (milliy tarixiy tajriba, madaniy meros), innovatsion (kreativ fikrlash, ijtimoiy muammolarga yangicha yechim topish) xususiyatlarini ochib berilgan;

progressiv milliy qadriyatlarning tarixiy tajriba, madaniy meros, ma’naviy ideallari va zamonaviy taraqqiyot tamoyillarini o‘zaro uyg‘unlashtiruvchi murakkab tizimida ma’naviy salohiyat yoshlarning o‘sib borayotgan (iste’molchilik, individualizm, begonalashuv, gedonizm, ma’naviy befarqlik) ehtiyojlarini tashabbuskorlik, kreativlik, innovatsion qadriyatlar, zamonaviy ijtimoiy xulq-atvor qoidalarini o‘zlashtirishga yo‘naltiruvchi muhim praksiologik omil ekanligi aniqlashtirilgan;

yoshlarning faol ijtimoiy pozitsiyasida ularning mehnat faoliyati, tadbirkorlik tashabbuslari va moliyaviy savodxonlik kabi iqtisodiy, zamonaviy bilim, mustaqil fikr, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni anglash va ularni hayotiy amaliyotga tatbiq etish kabi intellektual-ma’naviy salohiyatning anglangan ehtiyojlarni qondirishi hamda ularni yuzaga chiqarish, realizatsiya qilish va yuksaltirishda dinamik va dialektik omil ekanligi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

yoshlarning faol ijtimoiy pozitsiyasini shakllantirishda iqtisodiy va intellektual-ma’naviy salohiyatdan kompleks foydalanish tizimini ishlab chiqishda ta’lim, madaniyat va iqtisodiy faoliyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni mustahkamlash, tadbirkorlik tashabbuslarini, innovatsion loyihalarda ishtirokini, ijtimoiy mas’uliyatlilik madaniyatini rivojlantirish zarurati asoslab berilgan;

yoshlar intellektual va madaniy-ma’naviy salohiyatining tafakkur, bilim, qadriyat, o‘zini anglash, mas’uliyatni his etish, ijodiy yondashuv kabi xususiyatlarini yoshlar ehtiyojlariga bog‘liq ravishda yuksaltirish mexanizmlari takomillashtirilgan;

O'zbekistonda yoshlarning intellektual, madaniy va ma'naviy salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan faol ijtimoiy pozitsiyasini shakllantirish, ma'naviy salohiyatini o'stirish va fuqarolik mas'uliyatini kuchaytirish bo'yicha metodik tavsiyalar, ijtimoiy loyihalar va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda innovatsion yondashuvlarni joriy etish bo'yicha takliflar hamda yoshlarning ijtimoiy ongini faollashtirishga qaratilgan konseptual dasturlarni ishlab chiqish imkoniyatlari aniqlashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar, faktlar, statistik ma'lumotlar, sotsiologik so'rov natijalariga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definitsiyasi ilmiy-tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab chiqilganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o'tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo'yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo'lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ilgari surilgan konseptual g'oyalardan ma'naviy jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini, O'zbekiston yoshlarining faol ijtimoiy pozitsiyasini shakllantirishda ma'naviy salohiyatning o'rnini aniqlash, yoshlarning ma'naviy-axloqiy qadriyatlar asosida ijtimoiy faolligini kuchaytirish, ma'rifiy jamiyat barpo etishga qaratilgan islohotlarning ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqish, shuningdek, ma'naviy salohiyatni oshirish orqali yoshlarning ijtimoiy mas'uliyatini mustahkamlashga yo'naltirilgan ilmiy tahlil metodlarini takomillashtirishda, ma'rifiy jamiyatni shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqishda, ilm-fan va ta'lim-tarbiya sohasiga doir ilmiy tadqiqot ishlarida, madaniy-ma'rifiy muassasalar, mahalla, oila markazlari, ma'naviy salohiyatni o'stirish bilan shug'ullanuvchi markazlar, ma'naviy-madaniy tarbiya o'choqlari o'zining amaliy, kundalik faoliyatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, unda ishlab chiqilgan nazariy va metodologik yondashuvlar O'zbekiston yoshlarining faol ijtimoiy pozitsiyasini shakllantirish jarayonida ma'naviy salohiyatdan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishda, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Yoshlar ishlari agentligi, ma'naviy-axloqiy tarbiya markazlari, fuqarolik jamiyati institutlari hamda nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatida yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularni milliy g'oya va ma'naviy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, mafkuraviy immunitetini kuchaytirishda, "Yoshlar faol ijtimoiy pozitsiyasini shakllantirishda ma'naviy salohiyatdan foydalanish konsepsiyasi"ni, yo'l xaritalari va ma'naviy-ma'rifiy dasturlarni ishlab chiqishda, ta'lim tizimida "Falsafa", "Dinshunoslik", "Ma'naviyatshunoslik" kabi fanlarni o'qitishda, talabalar bilan davra suhbatlari, ijtimoiy loyihalar, liderlik va fuqarolik faolligi bo'yicha treninglarni tashkil etishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekiston yoshlarining faol ijtimoiy pozitsiyasini shakllantirishda ma'naviy salohiyatning o'rnini tadqiq qilish borasida olingan ilmiy natijalar asosida:

faol ijtimoiy pozitsiyaga ega bo'lgan yoshlarning ijtimoiy ongi zamonaviy qadriyatlar, innovatsion yondashuvlarni ifoda etuvchi intellektual salohiyat asosida turli madaniyatlar sintezini ifoda etuvchi tafakkurining ratsionallik, realizm, kreativlik, pragmatik yondashuv, milliy qadriyatlarga real va tanqidiy yondashuv, ularni qayta baholash asosida madaniyatlar sintezi (milliy o'zlik va global tafakkur bilan uyg'unligi, o'zini anglash va ijtimoiy faollikni kuchaytirish)ni aks ettirishiga oid ilmiy yangilik hamda taklif va tavsiyalardan Andijon davlat pedagogika institutida bajarilgan 01-166-son "Moddiy javobgar shaxslarning tavakkalchilik bilan bog'liq virtual o'yinlariga moyilligini diagnostika va korreksiya qilish" amaliy loyihada belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Andijon davlat pedagogika institutining 2024-yil 26-noyabrdagi 01-1296-son ma'lumotnomasi). Natijad, jamiyat ma'naviy salohiyati mezonlari va uni shakllantiruvchi omillar haqidagi nazariy xulosalar shaxslarning tavakkalchilik bilan bog'liq virtual o'yinlariga moyilligini diagnostika va korreksiya qilish dasturlarini tayyorlashda nazariy manba sifatida xizmat qilgan;

yangilanayotgan jamiyat yoshlarida faol ijtimoiy pozitsiyani shakllantirishning muhim determinanti sifatida yoshlarning intellektual (ratsionallik, kreativlik), madaniy (milliy meros va global qadriyatlar o'rtasida muvozanat), ma'naviy (ijtimoiy mas'uliyat, vijdon va axloqiy barqarorlikni ta'minlash) salohiyatining dialektik (harakat va o'zgarish, an'anaviy qadriyatlar bilan zamonaviy tafakkur o'rtasidagi o'zaro ta'sir va inkor), tarixiy (milliy tarixiy tajriba, madaniy meros), innovatsion (kreativ fikrlash, ijtimoiy muammolarga yangicha yechim topish) xususiyatlariga doir ishlab chiqilgan ilmiy natijalaridan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi faoliyatida, jumladan, "Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasini amalga oshirish, "Ma'naviy tarbiyani baholash"ning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish, "Mafkuraviy xurujlarga qarshi milliy g'oya asosida birgalikda kurashish, oila, maktab va mahalla hamkorligini mustahkamlash va shu asosda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash"da foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasining 2024-yil 22-oktabrdagi 36-son ma'lumotnomasi). Natijada, yoshlarning faol ijtimoiy pozitsiyasi shakllantirish haqidagi davra suhbatlari, seminarlar va konferensiyalarni mazmunan boyitishga, mamlakatimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarish hamda yoshlarni faol ijtimoiy pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qilgan;

progressiv milliy qadriyatlarning tarixiy tajriba, madaniy meros, ma'naviy ideallari va zamonaviy taraqqiyot tamoyillarini o'zaro uyg'unlashtiruvchi murakkab tizimida ma'naviy salohiyat yoshlarning o'sib borayotgan (iste'molchilik, individualizm, begonalashuv, gedonizm, ma'naviy befarqlik) ehtiyojlarini tashabbuskorlik, kreativlik, innovatsion qadriyatlar, zamonaviy ijtimoiy xulq-atvor qoidalarini o'zlashtirishga yo'naltiruvchi muhim praksiologik omil ekanligiga doir ilmiy xulosalar va takliflardan O'zbekiston Yoshlar ittifoqining 2025-yil ikkinchi yarim yillik ish rejasi 27-band mahallalarda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda ularning intellektual jihatdan kamol topishini va ma'naviy rivojlanishini ta'minlash va 37-band mahallalarda yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, iqtidori, iste'dodi va tashabbuslarini rag'batlantirish hamda hayotda o'z

o'rnini topishlariga ko'maklashish bo'yicha belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston Yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashining 2025-yil 11-avgustdagi 04-13/651-son ma'lumotnomasi) Natijada, yoshlarning axloqiy madaniyati yuksalishi, yashayotgan hududiga nisbatan vatanparvarlik va daxldorlik hissini ortishi, tashabbuskorlik, kreativlik, innovatsion qadriyatlar, zamonaviy ijtimoiy xulq-atvor qoidalarini o'zlashtirishga xizmat qilgan;

yoshlarning faol ijtimoiy pozitsiyasida ularning mehnat faoliyati, tadbirkorlik tashabbuslari va moliyaviy savodxonlik kabi iqtisodiy, zamonaviy bilim, mustaqil fikr, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni anglash va ularni hayotiy amaliyotga tatbiq etish kabi intellektual-ma'naviy salohiyatning anglangan ehtiyojlarni qondirishi hamda ularni yuzaga chiqarish, realizatsiya qilish va yuksaltirishda dinamik va dialektik omil ekanligi bo'yicha tadqiqot yangiliklaridan Farg'ona viloyat teleradiokompaniyasining "Adabiy muhit", "Xayrli tong", "Ma'naviyat qalb ko'zgusi", "Ta'lim xabarlar" ko'rsatuvlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Farg'ona viloyati teleradiokanali davlat muassasasining 2025-yil 27-oktyabrdagi 01-12/222-son ma'lumotnomasi). Natijada, yoshlarning axloqiy madaniyati yuksalishi, yashayotgan hududiga nisbatan vatanparvarlik va daxldorlik hissini ortishi, tashabbuskorlik, kreativlik, innovatsion qadriyatlar, zamonaviy ijtimoiy xulq-atvor qoidalarini o'zlashtirishga hamda faol ijtimoiy pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola (4 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya umumiy hajmi 148 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti, tadqiqotda qo'llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**O'zbekiston yoshlarida faol pozitsiyani shakllantirish ijtimoiy-falsafiy muammo sifatida**" deb nomlanib, unda "faol ijtimoiy pozitsiya" tushunchasi va uning mohiyati, shuningdek yoshlarda faol pozitsiyani shakllantirishning milliy-tarixiy asoslari tadqiq etilgan.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan modernizatsiya va islohotlar jarayonlari kontekstida yoshlarning faol pozitsiyaga ega bo'lishi islohotlar natijadorligi va samaradorligini belgilab beruvchi muhim subyektiv omillardan biridir.

Tadqiqotda faol pozitsiya tushunchasi va uning mohiyati, yoshlar faolligini shakllantiruvchi omillar tahlil etilgan. "Pozitsiya", "hayotiy pozitsiya", "ijtimoiy pozitsiya" va "faol pozitsiya" kabi tushunchalarning umumiy ma'nosi shaxsning hayotda ma'lum maqsadlarga qaratilgan, ularning asosida turgan ehtiyojlarining qondirilishini ta'minlaydigan ijtimoiy jarayonlardagi o'rni, ularga munosabati hamda bu jarayondagi xatti-harakatlarini anglatishi asoslab berilgan. Pozitsiya tushunchasiga berilgan ta'riflarning xususiyatlari quyidagicha keltirilgan:

- "har qanday kimsa yoki narsaning tutgan o'rni, ishg'ol qilib turgan joyi, mavqeyi holati vaziyati;
- qo'shinning mudofaa yoki hujum qilish maqsadida egallab turgan va muhandislik nuqtayi nazaridan jihozlangan yer maydoni;
- shaxmat va shashka o'yinida donalarning joylashish holati;
- biror masalada tutilgan yo'l, nuqtayi nazar, voqea hodisaning muayyan bahosi"⁶.

Ijtimoiy-falsafiy jihatdan *pozitsiya o'z qarashlarida sobit qolish, ya'ni tashqi muhit, atrofdagi voqea-hodisalarga, turli munosabatlarda dunyoqarashidan kelib chiqib, o'z mulohazalarda qolish va himoya qilishga nisbatan ishlatiladi*. Bunday pozitsiya insonning hayotiy imkoniyatlarini aniqlab beradi va uning asosida salohiyatini, nimalarga qodir ekanligini, qobiliyatini yuzaga chiqaradi.

Dissertant fikricha, jamiyatda yoshlarning ijtimoiy pozitsiyasini o'rganishning ilmiy asoslariga e'tibor qaratgan holda uning xususiyatlari, determinantlari va omillarini ham o'rganish zarur. Bu borada eng avvalo, yoshlarning ijtimoiy o'ziga xosliklari, jumladan psixologiyasi, ma'naviyati, ba'zan hayotiy tajribasining kamligi hisobiga hayot, turmush tarzi, yashash haqida aniq tasavvurlarga ega emasligi, ko'pgina muammolarni hal qilishda shoshma-shosharlik qilishlari kabilar yoshlar pozitsiyasi masalasiga ehtiyotkorlik bilan yondashish zarur. Faol pozitsiya tushunchasi ijtimoiy faollikning ko'nikmalari va yangi tajriba elementlarini o'zlashtirish orqali boyib boradi. Faol ijtimoiy pozitsiya: *Yoshlarning faol ijtimoiy pozitsiyasi atrofda, jamiyatda hamda dunyoda sodir bo'layotgan hodisalar, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy-ma'naviy jaryonlarga, modernizatsiya va innovatsiyalarga munosabati, ularning hodisalaridagi ishtiroki, anglangan ehtiyojlari zahirida olib boradigan kreativ faoliyatini anglatadi*.

Yoshlarning yangicha ma'naviy-axloqiy qiyofasi, faol ijtimoiy pozitsiyasining shakllanishi uchun birlamchi asos bo'ladigan bozor iqtisodiyoti, tadbirkorlik, oilaviy xususiy tadbirkorlik kuchlarining bir paytda rivojlanishi bilan erishish mumkin. Shu bilan birga jamiyatda barqaror iqtisodiyotni ta'minlash orqali iqtisodiy islohotlar samaradorligiga erishish, xususiy biznesni rivojlantirish orqali yangi ish o'rinlarini yaratish, raqobatbardoshlik muhitini shakllantirish yoshlarning faol ijtimoiy pozitsiyasini shakllantirishda asosiy omil bo'lib hisoblanadi. O'zbekiston Prezidenti

⁶ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3-жилд. – Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси", 2008. – Б. 325.

Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Mamlakatimizning zamonaviy va jozibador qiyofasini, Yangi O'zbekistonni barpo etish vatandoshlarimizning maqsad – muddaosiga aylandi"⁷.

Dissertatsiyada yoshlarda faol pozitsiyani shakllantirishda nafaqat zamonaviy tarbiya, balki tarixiy, milliy-ma'naviy negizlarga asoslanishi kerakligi ta'kidlangan. Yoshlarda faol pozitsiyani shakllantirishda milliy tarix, milliy tarbiya asoslarining shakllanishi, milliy qadriyatlar, xalqning tarbiya tamoyillarining milliy-tarixiy asoslari tahlil etilgan. Ular milliy tarix, mentalitet va millat turmush tarzini aks ettirishi aniqlashtirilgan. Jamiyat a'zolarining faol pozitsiyaga ega bo'lishi muammosi tarixiy jarayonda doim ham mavjud bo'lganligiga e'tibor qaratilgan.

Tarbiya sohasida va yoshlar tarbiyasi sohasida samarali usullaridan biri tarixiy milliy an'analar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslanishdir. "Avesto"da aks etgan "Ezgu o'y, ezgu fikr, ezgu amal" g'oyasida so'z va ish birligi, xalqning ideallari aks etgan bo'lib, kishilarning kundalik hayotida ham, jamiyatning ijtimoiy hayotida ham amal qilinishi faqat taraqqiyotga va insonlarda faol pozitsiyaning mavjud bo'lishiga xizmat qiladi. "Islom dini barcha unga e'tiqod qiluvchilar, ayniqsa, yoshlarning tarbiyasi muammolarini to'la o'z nazoratiga olib, ularni hal etishning yo'llarini jamiyat ongiga singdirdi"⁸. Tadqiqotdagi faol pozitsiyaning shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan muhim omillar haqidagi ushbu fikrlar mazkur masalaning chuqur tarixiy ildizlarga ega ekanligini aniqlashtiradi. O'rta Osiyoda azaldan mehnatsevarlik, ilm o'rganish qadriyat sifatida shakllangan. Xususan, Naqshbandiya ta'limotida "Halol mehnat qilish, Allohga e'tiqod qilish bilan birga o'zining oilasi va farzandlarini unutmasligi, ular uchun mehnat qilishi, ya'ni e'tiqodni yoddan chiqarmagan holda foydali faoliyat olib borishining zarurligi kabi g'oyalar aks etgan"⁹. Yoshlarda faol pozitsiyani shakllantirishning milliy-tarixiy asoslaridan yana biri sifatida mamlakatimiz tarixida ma'rifatparvarlik davrini yaratgan jadidlarning ilmiy-falsafiy asarlariga, ijtimoiy faoliyatini e'tirof etish zarur. Behbudiy "milliy manfaatlar, millat taraqqiyoti, milliy ehtiyojlarni yaxshi bilim olgan dorilfununlarda o'qigan zamonaviy mutaxassislar qondirishi mumkin"¹⁰, deb aytgan. Keltirilgan madaniy-ma'naviy taraqqiyot natijasida shakllangan qadriyatlar, madaniyat va ma'naviyat elementlari o'z davridagina emas, balki hozirgi kunda ham yoshlar tarbiyasida hamda ularda faol ijtimoiy pozitsiyani shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, madaniy meros, qadriyatlar, an'analar va axloq qoidalari yoshlarning shaxs sifatida shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ular orqali yoshlar o'z xalqining tarixiy tajribasini, milliy g'ururini va ijtimoiy mas'uliyatini anglaydi. Agar yoshlar faol ijtimoiy pozitsiyasi shakllantirilsa ular islohotlarni tushunib, ularni qo'llab-quvvatlasa, modernizatsiya jarayonlari tezroq va samaraliroq kechadi. Bundan kelib chiqadiki, mamlakat yoshlarida faol fuqarolik pozitsiyani shakllantirish faqat zamonaviy qadriyatlar, zamonaviy bilim va texnologiyalar bilangina cheklanib qolmasligi kerak. Umumjahon sivilizatsiyasi

⁷ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Тошкент: "Ўзбекистон", 2021. – Б.6.

⁸ Гараджа В.И.Социология религии. – Москва: Скифия принт, 1996. – С.161.

⁹ Максуд Р. Ислам. – Москва: Фаир-пресс, 2001. – С.200.

¹⁰ Mahmudxo'ja Behbudiy.Tanlangan asarlar. - Toshkent: "Ma'naviyat", 2020. –B.177-178.

tizimidan munosib joy olgan tarixiy-milliy merosimizni o'zlashtirish, ularni anglab yetish va ulardan g'ururlanishga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yoshlarning faol ijtimoiy pozitsiyasini shakllantirish mamlakat va millat hayotida kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy hamda ilmiy-texnologik jarayonlarga nisbatan ongli va mas'uliyatli munosabatni rivojlantirishni talab etadi. Bu jarayon yoshlarning innovatsion yangiliklar va ijtimoiy o'zgarishlarga befarq bo'lmagan, faol ishtirokini ta'minlaydigan ijtimoiy ong va fuqarolik mas'uliyatini shakllantirish bilan chambarchas bog'liqdir. Yoshlarni shunchaki axloqiy me'yorlar asosida tarbiyalash emas, ularda faol ijtimoiy, axloqiy pozitsiyani shakllantirish ijtimoiy ehtiyojga aylandi.

Dissertatsiyaning ikkinchi **“Yangi O'zbekistonda yoshlarning faol hayotiy pozitsiyasini shakllantirish omillari”** deb nomlangan bobida inson salohiyatining jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va ma'naviy salohiyatning faol hayotiy pozitsiyani shakllantirishdagi ahamiyati ochib berilgan.

Falsafiy adabiyotlarda inson salohiyatiga turli yondashuvlar mavjudli va bu tushuncha “inson taraqqiyoti”, “inson kapitali”, “inson resurslari”, “ma'naviy salohiyat”, “intelektual salohiyat” tushunchalariga bog'liq¹¹. Jamiyatning iqtisodiy-ijtimoiy, ilmiy-texnik, madaniy-ma'naviy, siyosiy-huquqiy taraqqiyoti asosida insonning ongli faoliyatini tashkil etuvchi omil va determinant inson salohiyati hisoblanadi. Salohiyat zamonaviy va kelajak jamiyatini harakatga keltiruvchi muhim ijtimoiy omil sifatida qaralishi zarur. “Salohiyatlilik, kuch va undan olingan - potensial, nisbatdir. Chunki aniq mavjud bo'lgan o'zining tashuvchisiga tegishli (fiziologik salohiyat, biologik salohiyat, ijtimoiy salohiyat, psixik salohiyat va boshqalar). Umumiy salohiyatlilik mutlaq, chunki u barcha mavjud salohiyatning xususiyati hisoblanadi. Uning asosida olamning salohiyatliligi realizatsiya bo'ladi”¹².

Tadqiqotchi fikricha, har qanday jamiyatning inson bilan bog'liq bo'lgan muammolardan biri uning salohiyatini yuksaltirish, to'g'ri yo'naltirish va realizatsiya qilish hisoblanadi. Bu borada davlatning vazifasi esa jamiyatning har bir a'zosi, ayniqsa, yoshlarning salohiyatini yuksaltirish va realizatsiya qilish uchun sharoitlar va imkoniyatlarni yaratishdan iborat. Chunki o'z hayotida modernizatsiya va islohotlarni amalga oshirayotgan, bu jarayonga innovatsiyalarni tadbiq etayotgan har qanday jamiyat subyektiv omilning faol hayotiy pozitsiyasini shakllantirishga, buning uchun insonlar salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan siyosat olib borishi zarur.

¹¹ Холмирзаев Н.Н. Ёшларнинг ижтимоий фаоллигини юксалтиришда меҳнат анъаналарининг ўрни. Ф.ф.бўйича ф.д. (PhD) диссертацияси автореферати – Бухоро, 2021; Юлдашева Ф.Х. Ўзбекистонда глобallasув шароитида маънавий янгиланишнинг ўзига хос хусусиятлари. Ф.ф.бўйича ф.д. (DSc) дисс. автореферати– Андижон, 2019; Холмирзаев Х.Н. Инсон салоҳиятининг тузилиши ва ижтимоий моҳияти. Ф.ф.бўйича ф.д. (PhD) диссертацияси автореферати – Андижон, 2022; Жабборов С.С. Маънавий салоҳият – ижтимоий тараққиёт манбаи. ф.ф.бўйича ф.д. (PhD) диссертацияси автореферати – Бухоро, 2023; Жабборов Ж.А. Маънавий эҳтиёжлар юксалиши жамият ривожланишининг муҳим омили сифатида. Ф.ф.бўйича ф.д. (PhD) диссертацияси автореферати – Қарши, 2023; Исомиддинов А. Ёшлар интеллектуал салоҳиятини оширишнинг ижтимоий-маданий омиллари: Фал.фан.бўйича фал. докт... (PhD) дисс... – Андижон, 2021; Юлдашев Ф. Ёшлар фаолиятида эҳтиёжлар ва манфаатлар уйғунлиги: Фал.фан.докт... (DSc) дисс... – Андижон, 2021.

¹² Калинина Т.В. Функционально-типологический анализ человеческого потенциала. Дисс.на соискание степени кандидата философских наук. - Нижний Новгород, 2007. – С. 16.

Yoshlar uchun birdaniga turli yo‘nalishlarda va kasblarda faoliyat yuritish, o‘zini sinab ko‘rishi va ko‘rsata olishi imkoniyatlarining yuzaga kelishi aniq. Ammo shu bilan birga jamiyatda kuchli raqobat, iqtisodiy, madaniy-ma‘naviy va boshqa ehtiyojlarning muntazam ortib borishi natijasida ularni qondirish bilan bog‘liq muammolarning yuzaga kelishi, yashash uchun kurashning ziddiyatli tus olib kuchayib borishi, ma‘naviy va axloqiy qadriyatlarning emas, moddiy qadriyatlarning yetakchi o‘ringa ega bo‘lib borayotganligi yoshlardan jamiyatda va o‘z hayotida faol hayotiy pozitsiyani egallashni talab etadi.

Tadqiqotda ma‘naviy salohiyat inson hayotining axloqiy, diniy, estetik, aksiologik, mafkuraviy va boshqa jihatlarini qamrab oluvchi qobiliyati, resurslari, bilimi, ehtiyojlarini ifoda etuvchi ijtimoiy praksiologik va antropologik hodisa sifatida tahlil etilgan. Jamiyat a‘zolarining ma‘naviy salohiyati, imkoniyatlarining to‘planishi, ularning to‘g‘ri yo‘naltirilishi, kerakli o‘rinda yuzaga chiqarilishi va realizatsiya qilinishi taraqqiyotga ulkan hissa qo‘shadi. Milliy ma‘naviyat millatning etnostatusini belgilovchi va uning aksiologik nuqtayi nazardan yashovchanligini ta‘minlovchi hamda uning madaniy boyliklari, milliy qadriyatlarini kelajak avlodlarga yetkazib berish orqali millatning ham tarixiy jarayonda yashovchanligini saqlab qoluvchi muhim omil vazifasini o‘taydi. Bunda ma‘naviy salohiyat muhim rol o‘ynaydi.

Ma‘naviy salohiyat inson salohiyatining muhim shakli bo‘lib, u insonning ajralmas atributi, xususiyatidir. Shu ma‘noda ma‘naviy salohiyat insonning mohiyatini tashkil etadi. Ma‘naviy salohiyat inson salohiyatining shakli bo‘lib, u inson hayotining axloqiy, diniy, estetik, aksiologik, mafkuraviy va boshqa jihatlarini qamrab oluvchi qobiliyati, resurslari, bilimi, ehtiyojlarini ifoda etuvchi ijtimoiy antropologik va praksiologik hodisadir. Ma‘naviy salohiyat inson salohiyatining boshqa shakllariga ta‘sir ko‘rsatadi. Ma‘naviy salohiyat turfa ijtimoiy guruhlar va institutlar sa‘y-harakati o‘laroq ham rivojlanib boraveradi. Biroq bu jarayonning davlat tomonidan muvofiqlashtirilishi va boshqarilishi ma‘naviy salohiyat rivojiga strategik mazmun baxsh etadi, uni ijtimoiy taraqqiyot maqsad-muddaolari bilan uyg‘unlashtiradi.

Dissertant fikricha, ma‘naviy salohiyat to‘g‘risida fikr yuritilganda, uning taraqqiyoti ilmiy, intellektual salohiyatga ham bog‘liq ekanligini unutmaslik lozim. Chunki u ilm-fan taraqqiyoti, ilmiy texnologiyalar, zamonaviy axborot tizimi va boshqalarga asoslanadi. Lekin ma‘naviy salohiyatning mohiyati milliy xususiyatga ega bo‘lib, u millat taraqqiyoti bilan dialektik aloqador. Shu bilan birga ma‘naviy salohiyat milliy manfaatlariga, milliy ehtiyojlarni qondirishga yo‘nalgan. Ma‘naviy salohiyatni yuksaltirishga ta‘sir etuvchi bir qator omillar mavjud bo‘lib, ularning har biri ham ma‘naviy taraqqiyot, ham yoshlar ma‘naviy salohiyatini yuksaltirishga ta‘sir ko‘rsatadi. Bu omillar quyidagilardan iborat etib belgilangan:

- ma‘naviy muhit;
- ma‘naviy munosabatlar;
- ma‘naviy ehtiyojlar;
- ma‘naviy qadriyatlar va boshqalar.

Dissertant mulohazalariga ko‘ra, inson salohiyati uning faoliyati asosida yuzaga chiqadi, yuksaladi va realizatsiya bo‘ladi. Faoliyat insonning jamiyat va

tashqi muhit bilan o'zaro munosabatini aks ettiruvchi asosiy shakl bo'lib, u iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, ilmiy va estetik yo'nalishlarda ifodalanadi. Mazkur faoliyat inson ehtiyojlari, manfaatlari va maqsadlarining ifodasi sifatida uning jamiyatdagi o'rnini va ahamiyatini belgilab beradi. Ma'naviy salohiyatni taraqqiy ettirish, uni maqsadli yo'naltirish, buning uchun imkoniyatlar yaratish orqali davlatning turli sohalarida progressiv rivojlanishga erishish mumkin. Yoshlarning ma'naviy salohiyati tizimida quyidagi elementlar: bilim olishga intilish, faollik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik tuyg'ularining ham muhim o'rin olishiga erishish zarur. Bu elementlar yoshlarda faol ijtimoiy pozitsiyani shakllantirishning muhim ma'naviy-axloqiy omili bo'lib xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“O'zbekistonda yoshlar faol ijtimoiy pozitsiyasini shakllantirishning imkoniyatlari va istiqbollari”** deb nomlanib, unda ma'naviy yangilanish yoshlarda faol ijtimoiy pozitsiyani shakllantirishning omili ekanligi asoslangan hamda yangilanayotgan O'zbekistonda yoshlar salohiyatini yuksaltirish muammolari va yechimlari tadqiq etilgan.

Yangilanish har qanday o'zgarish, rivojlanish, taraqqiyotning atributi ajralmas xususiyati hisoblanadi. Har qanday yangilanish progressiv taraqqiyotning muhim elementi, bosqichi sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqotda ta'kidlanishicha, yangilanishlarga o'z navbatida ma'naviy yangilanishlar sabab bo'ladi. Falsafiy nuqtai nazardan yangilanish jarayoni dialektik xususiyatga ega bo'lib, borliqning barcha sohaları va elementlariga aloqador. Yoshlarni intellektual va ma'naviy salohiyatini, o'zini jamiyatning yaratuvchisi, ijodkori, millatning taqdiriga o'zining daxldorligini his qilishi kabilarni shakllantiradi. Bu esa yoshlarda faol ijtimoiy pozitsiyani shakllantirishga xizmat qiladi. O'zbekistonda yangilanishlar va ma'naviy yangilanishlar jarayonida yoshlarning faol ijtimoiy pozitsiyasini shakllanishida quyidagi muhim vazifalar mavjud:

- faol hayotiy pozitsiyaga ega bo'lish;
- o'z salohiyatini tinmay yuksaltirib borish;
- innovatsiyalarga intilish va ularni tadbiq etish;
- yangi axborotlarni tezroq olish va tahlil qilish;
- zamonaviy bilimlarni egallashga intilish;
- soha bilan bog'liq ko'plab kitoblar o'qish;
- innovatsiyalar asosida faoliyat olib borishdan iborat.

Tadqiqotda jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy, iqtisodiy sohalaridagi modernizatsiya jarayonlarining yoshlar salohiyatini foydali shakllantirishga ta'siri ochib berilgan. Yoshlar salohiyatining yuksalib borishi, ularning innovatsiyalarga munosabati, ularda faol ishtiroki, iqtisodiy, ma'naviy-madaniy hodisalarga ehtiyojlarini qondirishga nisbatan amalga oshiradigan kreativ xatti-harakatlari ularning jamiyatdagi faol ijtimoiy pozitsiyasini ta'minlaydi.

Dissertant fikricha, jamiyat a'zolarining mamlakat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi har qanday imkoniyatlari va salohiyatidan unumli foydalanish vazifasi turibdi. Bu borada yoshlarning iqtisodiy, ma'naviy, intellektual salohiyati ayniqsa, qo'l kelishi mumkin.

Tadqiqotda yoshlar salohiyatini yuksaltirishning istiqbollari sifatida quyidagilar keltirilgan:

- yoshlar ongida mehnatsevarlikni shakllantirishga qaratilgan axloqiy va diniy qadriyatlarni targ‘ib etish va ulardan o‘rinli foydalanish, ta‘lim-tarbiya jarayonida mazkur qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirib borishga erishiladi;

- yoshlarni faollashtirishga yo‘naltiruvchi milliy axloqiy va diniy qadriyatlardan o‘z o‘rnida foydalanish imkoniyatlari paydo bo‘ladi;

